

21.10.2015 yil

**Mavzu:** Ona tilim – jonim tilim

**Maqsad:** O'quvchilarni ona tilimizning uzoq tarixi, bosib o'tgan yo'li bilan tanishtirish. Ona tiliga mehr,

undan faxrlanish tuyg'usini shakllantirish.

**Boshlovchi:** Assalom alaykum aziz ustozlar va o'quvchilar. 21 oktabr tilimizning 24 yilligi munosabati bilan o'tkazilayotgan "Ona tilim- jonim tilim" mavzusida bo'lib o'tayotgan tadbirimizga xush kelibsiz. Barchangizni ushbu bayram bilan tabriklaymiz.

Til- millatning asosiy boyliklaridan biri. Dunyoda xalqlar ko'p. Lekin hamma xalq o'z tiliga ega. Binobarin, xalqning, millatning o'zligini namoyon qilishda tilning o'rnini va ahamiyati beqiyos. Ona tili ezgu fazilatlarini, yuksak tuyg'ular manbayi. U inson kamolotida betakror o'rin tutadi. Chunki onalarimiz bizga shu tilda alla aytadi, inson uchun hayotiy zarur bilim va tushunchalarni til vositasida ongu shuurimizga singdiradi. Odob va axloqimiz, fe'l – atvorimiz til orqali berilgan o'g'it va nasihatlar asosida shakllanadi.

Sahnaga 7 – B sinf o'quvchilarini taklif etamiz.

**Zamondoshlarimizning til haqidagi fikrlari**

**1-o'quvchi:** Bizning tilimiz turkiy tillar orasida eng boy, go'zal va muhtasham tillaridan biri hisoblanadi.

(Abdulla Oripov)

**2-o'quvchi:** Ona tilning buyuk ahamiyati shundaki, u ma'naviyat belgisi sifatida kishilarni jipslashtiradi.

(Islom Karimov)

**3-o'quvchi:** Juda boy, chiroyli tilimiz bor. Bu tilda ifoda etib bo'lmaydigan fikr tuyg'u holat yo'q

(Abdulla Qahhor)

**4-o'quvchi:** Har qanday xalqning ma'naviyatini bilmoqchi bo'lsang, eng avvalo uning tilini o'rganishga intil

(Pifagor)

## **“Faxrimsan tilim” 7-A sinf o’quvchilari ishtirokida**

**1-o’quvchi:** Sen Mahmud Qoshg’ariy kashf etgan dursan,

“Devonu lug’atit turk” kitobida.

Qorong’u zulmatni yoritgan nursan,

Turkiyzabon xalqim mehr oftobidan.

**2-o’quvchi:** U onam tilidir, otam tilidir,

Va bobom kuksida ming yillik nido.

Elimning serjilo mehr gulidir,

Mo’jiza kashf etgan chin aks-sado.

**3-o’quvchi:** Sensiz men go’yo qo’l-oyoqsiz qo’lman,

Sensiz men yo’lini yo’qotgan gado.

Sensiz na kofir, na musulmondirmen,

Seni yo’qotgan kun bil men ham ado.

**4-o’quvchi:** Sen borki iymoni butundir o’zbek,

Sen bilan daryodek jo’shqindir dilim.

Sen kiprik ustida posbon ko’zdek

Millatim faxrisan, Onajon tilim!

Sahnada maktab-internatining go’zal qizlari **“Shalola”** guruhini taklif etamiz  
(Raqs).

### **Sahnaga 8-B sinf o’quvchilarini taklif qilamiz.**

O’zbekiston Respublikasi Davlat Tili to’g’risidagi qonunning ayrim moddalaridagi  
namunalar tinglaymiz.

**1-modda:** O’zbekiston Respublikasining davlat tili o’zbek tilidir.

**2-modda:** O’zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi respublika hududida  
yashovchi millat va elatlarning o’z ona tilini qo’llashdan iborat konsitutsiyaviy  
huquqlariga monelik qilmaydi.

**10-modda:**Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalaridan ish yuritish, hisob-kitob, statistika va moliya hujjatlari davlat tilida yuritilida, ishlovshilarning ko'pchiligiga o'zbek tilini bilmaydigan jamoalarda davlat tili bilan bir qatorda boshqa tillarda ham amalga oshirilishi mumkin.

**14-modda:**O'zbekiston Respublikasida davlat tiliga yoki boshqa atillarga mensimslik, xusumt bilan qarash taqiqlanadi. Fuqarolarning o'zaro mamolarini, ta'lim olish tilini erkin tanlash huquqini amalga oshirishga to'sqinlik qiladigan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

**21-modda:**Korxonalar ishlab chiqariladigan mahsulot davlat tilidagi va obshqa tillridagi yorliqlar, yo'riqnomalar, etiketkalar bilan ta'minlanadi va e'lon qilinadi.

### **6-A sinf o'quvchisi Miyyiyeva Zebiniso jonli ijro "Ona yurtim" qo'shig'i**

Sahnaga 8-A sinf o'quvchilari. **So'z haqidagi, til haqidagi donolarimiz o'g'itlari va hikmatlariga navbatini beramiz.**

**1-o'quvchi:**So'z kuchidan yiqilur minbar ham, dor ham,

So'z birla chiqar indan ilon – mudor ham.

(Abu Shukur Balxiy)

**2-o'quvchi:**Kimki qisqa so'z gap bo'lsa bisyor,

Ul nutq majlisida doim bulur xor.

(Abdulqosim Firdavsiy)

**3-o'quvchi:** So'z ichra mudom aql yashirindir,

So'z chimildig'u aql kelindir.

(Nosir Xisrav)

**4-o'quvchi:**Ey birodar, bo'lsa es-xushdan nishon,

Bo'l muloyim, boadab, shirin zabon.

(Farididdin Attor)

**5-o'quvchi:**Nodonlardek yuzlab so'zni qilma qator,

Donolardek bir so'z degil, lek ma'nodor.

(Sadiy Sheroziy)

## 7 sinf o'quvchilari tomonidan raqs(Sanamjon)

### “Jonim tilim”-9 sinf o'quvchilari

**1-o'quvchi:**Havas qilib lug'at tuzgan Ibrat-tilim

-O, turkcham, -deb yozgan, yong'on Fitrat-tilim

Erkin bo'lding, kuchga mo'lding! Dunyolarim,

“O'zbek” degan noming ila titrat, tilim

**2-o'quvchi:**Dars ostida Mashrab senda so'zlagandi

Bobur Mirzo Xindistonda bo'zlagandi

Goh chig'atoy, goho turkey nomlaringni

Ne – ne naslar kamsitmoqchi ko'zlagandi.

**3-o'quvchi:**Yodga tushlar o'sha kunlar-firoqlaring

Qulog'inmas, tiling kesgan Shiroqlaring

O'chmachaydir, mangulikka qo'g'rilgandir

Mir Alisher yoqib ketgan chiroqlaring

### Kenjayeva Dilnoza “Xalq tili” manologi

Xalq tili tirik ekan, xalqning o'zi ham tirik.Xalq uchun uning o'tmishdagi son-sanoqsiz avlod-ajdodlari yaratib qoldirgan merosinitortib olishdan ham yomonroq zulm yo'qdir. Xalqning hamma narsasinitortib olsangiz oling, xalq uni topa oladi, lekin uning tilini yo'q qilsangizchi, xalq uni hech qachon yarata olmaydi; xalq o'ziga hatto yangi vatan ham qurib olishi mumkin, ammo yangi tilni hech qachon yaratib olishi mumkin emas: xalq tildan mahrum bo'ldimi, bu-xalqning o'zi ham yo'q bo'ldi, degan so'z...

**Boshlovchi:** Shu bilan bugungi tadbirimiz o'z nihoyasiga yetdi. Yana bir bor 24 yillik til bayramingiz bilan

**Barchangizni tabriklab qolamiz. Xayr salomat bo'ling.**

# SamVISMI

Ona tilim jonim tilim

tadbiri

O'qituvchilar: Xudayqulova G.

Juma 2015